



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№8

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 86 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-avgustda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Smart-logistika texnologiyalarini joriy etish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish tizimini optimallashtirish (Toshkent viloyati misolida).....	14
Mavlanov Sobirjon Pardabayevich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari asosida boshqaruv sifatini oshirish	20
Sattarov Umirzoq	
Современные банковские продукты	24
Хужамуратов Аббос Мардонович	
Amerika qo'shma shtatlarining ijtimoiy himoya tizimi.....	29
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
Совершенствование рынка услуг высшего образования как фактор повышения занятости населения в условиях цифровой экономики.....	33
Ибрагимов Тимур Ибодуллович, Асланова Дилбар Хасановна	
Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning qo'llanilishi va ularning samaradorligi.....	39
Kabulov Baxram Kuzibaevich	
Korxonalarda raqobat razvedkasi tizimlarini rivojlantirishda innovatsion raqamli texnologiyalarining o'rni.....	45
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'zbekiston banklarida sun'iy intellekt foydalanish samaradorligini oshirish.....	51
Kamolov Sardorbek Davlatjon o'g'li	
Agrar korxonalar xo'jalik faoliyatida risklarni boshqarish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning metodologik asoslari.....	59
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	66
Исомов Б. С.	
Tashish va saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish holati.....	70
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilishda DXSHning o'rni: madaniyat va sport sohasida imkoniyatlar	78
Baykalonov Jalil G'aybulloyevich	



IJTIMOIIY INFRATUZILMANI MODERNIZATSIYA QILISHDA DXSHNING O'RNI: MADANIYAT VA SPORT SOHASIDA IMKONIYATLAR

Baykalonov Jalil G'aybulloyevich

Bank-moliya akademiyasi

mustaqil taqqiqotchisi

E-mail: jalil198817@gmail.com

ORCID: 0009-0001-8334-740X

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat-xususiy sheriklik mexanizmining ijtimoiy infratuzilmani, xususan, madaniyat markazlari va sport obyektlarini modernizatsiya qilishdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Tahlillar orqali ijtimoiy sohalarda mavjud infratuzilma muammolari, davlat budjeti resurslarining cheklanganligi hamda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish orqali samaradorlikka erishish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, sohada davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida amalga oshirilayotgan loyihalar misolida madaniyat markazlari va sport obyektlarini yangilash, ularni boshqaruvga innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda xizmatlar sifati va qulayligini oshirish imkoniyatlari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik loyihalari, davlat sherigi, xususiy sherik, ijtimoiy infratuzilma, madaniyat markazlari, sport inshootlari, modernizatsiya, investitsiyalar, barqaror rivojlanish, innovatsion boshqaruv.

Abstract: This article highlights the role and significance of the public-private partnership mechanism in the modernization of social infrastructure, particularly cultural centers and sports facilities. Based on the analysis, it examines the existing infrastructure issues in the social sphere, the limited resources of the state budget, and the opportunities for improving efficiency through increased private sector involvement. In addition, using examples of ongoing PPP projects, the article substantiates the potential for renovating cultural and sports facilities, introducing innovative management approaches, and enhancing the quality and accessibility of services provided.

Key words: Public-private partnership projects, public partner, private partner. Social infrastructure, cultural centers, sports facilities, modernization, investments, sustainable development, innovative management.

Аннотация: В данной статье освещается роль и значение механизма государственно-частного партнёрства в модернизации социальной инфраструктуры, в частности, культурных центров и спортивных объектов. На основе анализа рассматриваются существующие инфраструктурные проблемы в социальной сфере, ограниченность ресурсов государственного бюджета, а также возможности повышения эффективности за счёт расширения участия частного сектора. Кроме того, на примере реализуемых проектов на условиях ГЧП обосновываются возможности обновления культурных и спортивных объектов, внедрения инновационного подхода к их управлению, а также повышения качества и удобства предоставляемых услуг. Также приведены правовые и институциональные механизмы, существующие проблемы и препятствия, а также предложения по их устранению.

Ключевые слова: проекты государственно-частного партнёрства, государственный партнёр, частный партнёр. Социальная инфраструктура, культурные центры, спортивные сооружения, модернизация, инвестиции, устойчивое развитие, инновационное управление.



KIRISH

Ijtimoiy soha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning samaradorligini oshirishda zamonaviy boshqaruv va moliyalashtirish usullarini joriy etish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, madaniyat markazlari va sport obyektlari kabi ijtimoiy infratuzilma obyektlarini modernizatsiya qilish hamda ularni aholiga qulay, sifatli xizmat ko'rsatishga moslashtirish dolzarb masalaga aylangan. Biroq bunday keng ko'lamli infratuzilmaviy islohotlarni faqat davlat budjeti hisobidan amalga oshirish amaliy jihatdan murakkab bo'lib, bu jarayonda yangi moliyaviy va boshqaruv mexanizmlarini tatbiq etish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining qo'llanilishi madaniyat va sport infratuzilmasini rivojlantirishda muqobil, samarali va barqaror yechim sifatida qaralmoqda.

Shu munosabat bilan, ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilishda davlat-xususiy sheriklikning o'rni, madaniyat va sport sohasidagi imkoniyatlarni o'rganish mavzusi sohaga oid kelgusi istiqbollarni tahlil qilishda amaliy va ilmiy jihatdan nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Mavzuning ahamiyati shundaki, u orqali ijtimoiy sohada barqaror rivojlanish, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik imkoniyatlari, investitsion muhit va aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati yuzasidan kompleks yondashuv shakllanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodchi olimlar infratuzilmaga investitsiyalar masalasini, shu jumladan, xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik modellari asosida tashkil etilishini o'z ilmiy tadqiqotlarida keng yoritib o'tganlar. Jumladan, P. Grimsey va M.K. Lewis o'zlarining ilmiy izlanishlarida davlat-xususiy sheriklikni "davlat xizmatlarini ko'rsatishda davlat va xususiy sektorning resurslarini, tajribasini va xatarlarni taqsimlash orqali hamkorlikda ishlash modeli" sifatida tarifiyladilar. J. Yescombe esa davlat-xususiy sheriklikni "infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, qurish, boshqarish va ulardan foydalanishda davlat va xususiy sektor o'rtasida shartnomaviy asosda tuziladigan sheriklik" deb ta'riflaydi¹.

Shuningdek, iqtisodchi olimlar Hodge va Greve (2007), Roehrich va boshqalar (2014) fikricha, ijtimoiy loyihalarni iqtisodiy samaradorlik asosida baholash murakkab, chunki ularning foydasi uzoq muddatli bo'lib, ko'pincha bevosita moliyaviy shaklda emas, balki ijtimoiy farovonlik tarzida namoyon bo'ladi. Vasileva T.G. fikricha, davlat-xususiy sheriklik – bu davlat va xususiy sektor o'rtasidagi uzoq muddatli, o'zaro manfaatli hamkorlik shakli bo'lib, jamoat ehtiyojlarini qondirishda samarali vosita hisoblanadi. U, shuningdek, bu model jamiyat uchun muhim bo'lgan xizmatlar va infratuzilmani ta'minlashda davlat xarajatlari kamaytiradi, deb ta'kidlagan².

Xalqaro valyuta jamg'armasi (International Monetary Fund) va Jahon banki (World Bank, 2016) hisobotlarida davlat-xususiy sheriklik ayniqsa ijtimoiy sohada keng qo'llanilishi lozimligi, bunda loyihalar nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy foyda nuqtayi nazaridan ham baholanishi zarurligi qayd etilgan. Yevropa investitsiya banki (EIB, 2020) tadqiqotlariga ko'ra, ijtimoiy sohada davlat-xususiy sheriklik loyihalari siyosiy xavflarga nisbatan sezuvchanroq bo'lib, ularni moliyalashtirishda moslashuvchan yondashuv zarur. Shuningdek, bu kabi loyihalarning natijalari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy mezonlar asosida ham baholanishi lozim, deb e'tirof etilgan³.

Mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklikning mohiyati va turli jihatlari yosh tadqiqotchi olimlarimiz — Jumaniyozov U.I. (2017), Shavkatov N.Sh. (2021), Sultanov A.S. (2021), Xalmuratov K.P. (2021), Yunusova S.B. (2022), Halimov F.E. (2022), Toxirov J.R. (2022), Mamayusupova D.B. (2022), Hayitov S.B. (2022), Utegenov Q.D. (2022), Kayumov B.E. (2023), Utemuratova G.X. (2023), Yakubova S.S. (2023) tomonidan o'rganilib, doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ishda ilmiy izlanishlar qiyosiy tahlil, grafik tahlil, empirik tadqiqotlarni umumlashtirish hamda normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish usullari asosida olib borilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy va xalqaro tajribadan ham ko'rinib turibdiki, bugungi kunda ijtimoiy sohada, xususan, madaniyat va sport yo'nalishlarida davlat va xususiy sektor vakillarining manfaatlari hamda maqsadlari ko'p jihatdan mushtarakdir. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, bu mushtaraklik har doim ham bir nuqtada kesishmay

1 "Public Private Partnerships: The Worldwide Revolution in Infrastructure Provision and Project Finance" (2004)

2 Public-Private Partnerships for Infrastructure: Principles of Policy & Finance (2018, 2-nashr)


3 Hodge, G.A., & Greve, C. (2007). Public-Private Partnerships: An International Performance Review. Public Administration Review, 67(3), 545-558.



qolmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqilsa, bu kabi tafovutlarni bartaraf etish va tomonlar manfaatlarini muvofiqlashtirishda davlat-xususiy sheriklik tamoyili samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda. Mazkur yondashuv nafaqat budget resurslarining cheklanganligi sharoitida iqtisodiy taraqqiyot va zamonaviy infratuzilma rivojlanishini rag'batlantirmoqda, balki xususiy investorlar uchun uzoq muddatli va ishonchli daromad manbaini taqdim etmoqda.

Davlat-xususiy sheriklik (DXSH) – bu ijtimoiy ahamiyatga ega vazifalarni hal qilishda hukumat va biznes vakili o'rtasida uzoq muddatli hamda o'zaro manfaatli hamkorlik modelidir. Ushbu yo'nalishga yanada batafsil to'xtalinsa, jamiyat va milliy iqtisodiyotga foyda keltiruvchi sohalar — jumladan, avtomobil va temir yo'llari, elektr stansiyalari, issiqlik energiyasi ta'minoti, shifoxonalar, maktab va bolalar bog'chalari, ichimlik va oqova suvlari, aeroportlarni qurish, shuningdek, madaniyat va sport obyektlarini ta'mirlash hamda rekonstruksiya qilishda hukumat va investor o'rtasida ko'p yillik manfaatli aloqa yo'lga qo'yiladi. Natijada davlat yangi qurilgan yoki rekonstruksiya qilingan davlat obyektlariga ega bo'ladi. Xususiy sherik esa ishga tushgan va qayta ta'mirlangan obyektlarda faoliyat boshlashi hisobiga barqaror daromadga ega bo'ladi. Shuningdek, uning qonuniy manfaatlari va huquqlari davlat tomonidan uzoq muddatga kafolatlanadi.

So'nggi 20 yil ichida ayni yo'nalishdagi hamkorlik butun dunyoda ommalashdi. Tomonlar o'z manfaatlariga mos ravishda foyda ko'rmoqda. Bugungi kunda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan dunyoning barcha qit'alarida keng foydalanilmoqda. Jumladan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 2024-yilda davlat-xususiy sheriklik asosida umumiy qiymati 11,47 milliard yevro bo'lgan 39 ta loyiha amalga oshirilgan (1-rasm)⁴.



1-rasm. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 2015–2024-yillar davomida DXSH asosida amalga oshirilgan loyihalar.

Xalqaro tajribada DXSH loyihalarini amalga oshirishda eng ko'p qo'llaniladigan bitim turlarining quyidagi davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmlari mavjud. Ularni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin (1-jadval).

1-jadval. DXSH mexanizmlarining (Bitim)larining turlari⁵

Atama	Tavsif
BOT (Build-Operate-Transfer)	Qurish – Ekspluatatsiya qilish – Davlatga topshirish modeli. Boshqa nomi: DBFMO Loyihalashtirish – Qurish – Moliyalashtirish – Texnik xizmat ko'rsatish – Ekspluatatsiya qilish).
RTO (Rehabilitate-Transfer-Operate)	Tiklash – Davlatga topshirish – Ekspluatatsiya qilish modeli, BOT/DBFMO modeliga o'xshaydi, biroq yangi qurilish (greenfield) o'rniga mavjud infratuzilmani rekonstruksiya qilishni nazarda tutadi.
BOOT (Build-Own-Operate-Transfer)	Qurish – Egalik qilish – Ekspluatatsiya qilish – Davlatga topshirish modeli. BOT modeliga o'xshash, ammo muayyan davr mobaynida xususiy sherikka huquqiy mulk huquqi ham beriladi.

⁴ Market update Review of the European public-private partnership market in 2024

⁵ APMG ning Jahon banki, OTB, YeTTB va boshqa moliyaviy institutlar tomonidan tan olingan DXSh Sertifikatlash Qo'llanmasiga ko'ra, xususiy sektor funksiyalarini aniq ifodalovchi qisqartmalar (DBOM, DBFOM, O&M) afzal hisoblanadi. Chunki BOOT, BTL kabi "egalik" va "o'tkazish" atamalariga asoslangan qisqartmalar turli mamlakat va sohalarida turlicha qo'llaniladi.




Atama	Tavsif
BOO (Build-Own-Operate)	Qurish – Egalik qilish – Ekspluatatsiya qilish modeli. BOT modeliga o'xshaydi, biroq bitim muddati belgilab qo'yilmagan. Mulk huquqi topshirilishi va muddati yo'qligi tufayli, bu model ayrim hollarda xususiylashtirishga o'xshashi mumkin. Biroq xususiylashtirishdan farqli ravishda, xususiylashtirish shartnoma asosida emas, balki me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi.
BTO (Build-Transfer-Operate)	Qurish – Davlatga topshirish – Ekspluatatsiya qilish modeli. Bunda xususiylashtirish obyektni qurib bitkazgach, uning huquqiy mulk huquqini davlatga topshiradi, lekin muayyan muddatga uni tijorat maqsadida boshqarish huquqiga ega bo'ladi.

Mana besh yildirki, O'zbekiston hukumati ijtimoiy ahamiyatga ega infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda xususiylashtirishni jalb qilish bo'yicha faol harakat qilib kelmoqda. Davlat va biznes o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikning zamonaviy shakllarini ishlab chiqish va joriy etish davlat boshqaruvida 2017–2018-yillarda boshlangan islohotlarning tarkibiy qismini tashkil etadi. Ushbu davr mobaynida hukumat madaniyat, sport, maktabgacha ta'lim, sog'liqni saqlash, kommunal xo'jalik, suv xo'jaligi va energetika kabi sohalarida davlat-xususiylashtirish (DXSH)ni rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlarni ishlab chiqdi.

Mamlakatimizda ma'nan eskirgan va nosoz holga kelgan infratuzilmani modernizatsiya qilish, shuningdek, tegishli davlat xizmatlari sifatini oshirish uchun zarur bo'lgan investitsiyalarni jalb etishni jadallashtirish maqsadida 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida islohotlar kun tartibiga DXSH mexanizmini joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Mazkur strategiyalarga ko'ra, 2030-yilga qadar DXSH mexanizmlari orqali 30 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiyalarni jalb etish rejalashtirilgan.

Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-saytidagi ma'lumotlarga ko'ra, 2020–2024-yillar davomida amalga oshirilgan DXSH loyihalarini tahlil qilinganda, umumiy qiymati 16,8 milliard AQSh dollariga teng bo'lgan 1 225 ta loyiha amalga oshirilgani aniqlanadi. Shundan 2020-yilda 51 ta, 2021-yilda 157 ta, 2022-yilda 175 ta, 2023-yilda 591 ta, 2024-yilda esa 251 ta loyiha amalga oshirilgan (2-rasm)⁶.



2-rasm. 2020-2024-yillarda amalga oshirilgan DXSH loyihalar


Shuningdek, sohalar kesimida tahlil qilinganda, DXSH tamoyiliga asoslangan loyihalar turli sohalar bo'yicha har xil darajada taqsimlangani ko'zga tashlanadi. Loyihalar soni bo'yicha eng yuqori ulush suv xo'jaligi sohasiga to'g'ri keladi — bu yo'nalishda 547 ta loyiha amalga oshirilgan. Ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash doirasida 221 ta loyiha isitish tizimlarini modernizatsiya qilishga qaratilgan. Shuningdek, ta'lim sohasida 150 ta, energetika va ekologiya yo'nalishlarida mos ravishda 67 tadan, sog'liqni saqlash va madaniyat sohalarida esa har biri bo'yicha 57 tadan loyiha amalga oshirilayotgani qayd etilgan.

Bundan tashqari, soliq, agrosanoat, qurilish, huquqni muhofaza qilish, sport, hunarmandchilik va bandlik kabi yo'nalishlarda jami 59 ta DXSH loyihasi ro'yxatga olingan. Bu holat DXSH modelining faqat yirik infratuzilma

6 Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti <https://www.imv.uz/>



obyektlariga emas, balki turli ijtimoiy va iqtisodiy sohalarga ham faol tatbiq etilayotganidan dalolat beradi (3-rasm)⁷.




3-rasm. 2020-2024-yillarda amalga oshirilgan DXSH loyihalari sohalar kesimida

DXSH loyihalari hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda xususiy sektor imkoniyatlarini jalb etishda muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda DXSH mexanizmi keng qo'llanilib, turli sohalarda amalga oshirilayotgan loyihalar soni ortib bormoqda. Hududlar kesimida tahlil qilish DXSH loyihalarining geografik taqsimoti va ularning hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini aniqlash imkonini beradi.

Xususan, eng ko'p DXSH loyihalari aholi zich joylashgan hududlarda amalga oshirilmoqda. Farg'ona, Andijon va Samarqand viloyatlari yetakchi hududlar sifatida ajralib turib, Farg'ona viloyatida 141 ta, Andijon viloyatida 130 ta, Samarqand viloyatida 120 ta loyiha amalga oshirilayotgani DXSH mexanizmidan foydalanish darajasining yuqoriligini ko'rsatadi. Bu viloyatlarda aholi zichligi yuqori bo'lib, infratuzilma va ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan talab keskin.

Namangan, Sirdaryo, Surxondaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida loyihalar soni 86–90 ta oralig'ida bo'lsa, Toshkent shahrida 65 ta, Toshkent viloyatida esa 60 ta DXSH tamoyilidagi loyiha mavjud. Jizzax va Navoiy viloyatlarida DXSH loyihalari soni jihatidan nisbatan kamroq bo'lib, Jizzaxda 35 ta, Navoiyda esa 31 ta loyiha amalga oshirilgan⁸ (4-rasm).



4-rasm. DXSH loyihalarning hududlar kesimida soni

⁷ Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti

⁸ Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti <https://www.imv.uz/>



Bugungi kunda respublika bo'yicha 837 ta madaniyat markazi hamda 254 ta sport maktabi faoliyat yuritmoqda. Ushbu sohalarning infratuzilmasini saqlash (ekspluatatsiya qilish), ularni rivojlantirish va aholiga sifatli xizmatlar ko'rsatishni ta'minlash maqsadida 2024-yil uchun davlat budjetidan jami 2,5 trln so'm mablag' ajratilgan. Ushbu mablag'ning 1,05 trln so'mi madaniyat sohasiga, 1,5 trln so'mi esa sport sohasiga yo'naltirilgan.


Mazkur xarajatlar o'z navbatida, davlat budjeti resurslarining cheklangani sharoitida mavjud ehtiyojlarni to'liq qoplashga yetarli emas. Bu esa zamonaviy infratuzilmani yaratish, mavjud obyektlarni rekonstruksiya qilish va texnik xizmat ko'rsatish kabi muhim yo'nalishlarda qo'shimcha moliyaviy manbalarni izlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, sohaga xususiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmi muhim yechimlardan biri sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda madaniyat va sport obyektlarini samarali boshqarish bo'yicha bir qator tegishli qarorlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi "Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3892-son⁹, 2023-yil 7-apreldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-114-son¹⁰ qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyuldagi "Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirishga ko'maklashish va moliyalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 570-son¹¹, 2021-yil 20-yanvardagi "Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklik asosida beriladigan davlat mulki obyektlarining ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 30-son¹² qarorlari DXSH mexanizmi uchun huquqiy asos yaratib, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda ushbu soha obyektlarini tadbirkorlarga DXSH asosida berishda "Qurish – Eksploatatsiya qilish – Davlatga topshirish" (Build–Operate–Transfer, BOT) modelidan foydalanilmoqda. Bu model doirasida davlat organi va xususiy sherik o'rtasida ma'lum muddatga bitim tuziladi. Bitim asosida xususiy sherik infratuzilma obyektni qurish, kengaytirish, rekonstruksiya qilish yoki yangilash, shuningdek, unga tegishli davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun mas'ul bo'ladi.

Xususiy sherikka loyiha xarajatlarini qoplash maqsadida, faqat madaniyat va sport sohasidagi davlat mulki obyektlarida o'z faoliyat turini saqlab qolgan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va foydalanuvchilardan xizmat haqi undirish huquqi beriladi. Ushbu to'lovlar odatda davlat sheriklari tomonidan belgilangan tariflar asosida amalga oshiriladi. Eng muhim jihati shundaki, DXSH bitimi orqali davlat sherigi obyektni saqlash, ta'mirlash va moliyalashtirish bilan bog'liq xarajatlardan ozod qilinadi. Shu bilan birga, xususiy sherik loyihaga uzoq muddatli investitsiya kiritish orqali o'z biznesining barqarorligini ta'minlaydi hamda barqaror daromad olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2021–2024-yillar davomida madaniyat va sport yo'nalishida DXSH asosida amalga oshirilgan loyihalar tahlil qilinganda, madaniyat sohasida 57 ta, sport sohasida esa 7 ta loyiha amalga oshirilgani aniqlanadi. Bu ko'rsatkich DXSH asosida amalga oshirilgan umumiy loyihalarning 5 foizini tashkil etadi (5-rasm).



5-rasm. 2021-2024-yillarda madaniyat va sport sohasi amalga oshirilgan loyihalar

9 <https://lex.uz/ru/docs/-3845354>

10 <https://www.lex.uz/uz/docs/-6426456>

11 <https://lex.uz/uz/docs/-4410307>

12 <https://lex.uz/docs/-5234736>



Biroq yaratilgan imkoniyatlar va normativ-huquqiy asoslarga qaramay, madaniyat va sport sohalarida DXSH mexanizmlarining amaliyotga keng joriy etilishi hanuzgacha yetarli darajada emas. Joylarda DXSH loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida davlat sheriklari hamda xususiy sektor o'rtasida hamkorlikning sustligi, loyiha tashabbuslarining davlat sheriklari tomonidan yetarlicha ilgari surilmayotgani, shuningdek, ayrim hollarda tashkiliy va institutsional mexanizmlarning samarali ishlamayotgani kabi muammolar mavjud. Xususiy sheriklar tomonidan ushbu yo'nalishdagi loyihalarga sarmoya kiritishga bo'lgan qiziqish pastligicha qolmoqda. Bunga asosiy sabab sifatida loyihalarning iqtisodiy jozibadorligi yetarli emasligi, daromad manbalarining aniq belgilanmaganligi yoki xavf taqsimotining xususiy sektor uchun noqulayligi keltirilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Respublikadagi madaniyat va sport obyektlari faoliyatiga davlat-xususiy sheriklikni joriy etishdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, loyihalarning tadbirkorlar uchun jozibadorligini oshirish, sohaga investitsiyalarni jalb qilish orqali ularning samaradorligini kuchaytirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi.

Madaniyat va sport obyektlarini DXSH asosida xususiy sheriklarga berishga doir bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lsa-da, loyihalarni amalga oshirish bosqichlari hanuzgacha soddalashtirilmagan. Jumladan, umumiy qiymati 1 mln AQSh dollarigacha bo'lgan kichik DXSH loyihalari uchun ham, 10 mln AQSh dollaridan ortiq bo'lgan yirik loyihalarga qo'yiladigan talablar deyarli bir xil hisoblanadi. Shu munosabat bilan, qiymati 1 mln AQSh dollarigacha bo'lgan kichik loyihalar uchun alohida soddalashtirilgan tartibni joriy etish zarur.

Sohada loyihalarning jozibadorligini oshirish va xususiy investitsiyalarni keng jalb etishni ta'minlash maqsadida DXSH loyihalarini amalga oshirishda har bir hudud va obyektga, tuman va shaharlarning mavjud sharoiti, salohiyati hamda imkoniyatlarini hisobga olgan holda individual yondashuvni joriy etish lozim. Bunda:

hududlarni alohida toifalarga ajratgan holda, DXSH doirasida yangi barpo etilgan yoki rekonstruksiya qilingan bino va inshootlarning tegishli qismlariga nisbatan tuman va shahar toifasidan kelib chiqib, tadbirkorlarga mulk huquqini berish;

xususiy sherikka madaniyat va sport obyektlarida ushbu faoliyat turlari bilan birgalikda, davlat sherigining asosiy faoliyat turiga halaqit bermagan holda, davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimga asosan boshqa faoliyat turlarini ham amalga oshirishga ruxsat berish;

amaldagi qonunchilikka ko'ra, DXSH loyihalari uchun baholash hujjatlarini ishlab chiqish majburiy bo'lib, bu jarayon investorlar uchun ko'p vaqt va qo'shimcha xarajat talab qiladi. Shu munosabat bilan, madaniyat va sport obyektlari bo'yicha dastlabki moliyaviy hisob-kitoblar tayyorlanishi sharti bilan loyihani baholash hujjatini ishlab chiqish talabi bekor qilinishi mumkin;

davlat-xususiy sheriklik bitimi asosida amalga oshiriladigan qurilish-ta'mirlash ishlari doirasida xususiy sheriklar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida loyiha-smeta hujjatlarini to'g'ridan-to'g'ri vakolatli organga davlat ekspertizasidan o'tkazish uchun taqdim etish amaliyotini joriy etish;

Madaniyat va sport sohalarida hozirgacha amalga oshirilgan DXSH loyihalari ushbu mexanizmning samaradorligini yaqqol namoyon etmoqda. Davlat mablag'larini tejash, mavjud infratuzilmadan samarali foydalanish hamda sohaga qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish uchun investorlar uchun qulay va barqaror shart-sharoitlarni yaratish lozim. Shu nuqtayi nazardan, DXSHning turli modellarini joriy etish tavsiya etiladi. Jumladan:

xususiy sherikka bino va inshootlarni qurish, ta'mirlash hamda jihozlash taklifi bilan berish;

xususiy sherikka madaniyat markazlari faoliyatini boshqarish taklifi bilan berish;

davlat-xususiy sheriklik loyihalari bo'yicha elektron platforma yaratish, loyihalarni amalga oshirish, reestrini yuritish, hisobotini shakllantirish va monitoring jarayonlarini to'liq raqamlashtirish;

Shuningdek, davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish uchun raqamli iqtisodiyot va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish, shu asosda ushbu sohada kadrlarni o'qitish hamda keng ko'lamli o'quv adabiyotlarini tayyorlash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикасининг "Давлат-хусусий шериклик тўғрисида"ги қонуни, ЎПҚ-537-сон, 10 май 2019 й.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 720-сонли қарори билан тасдиқланган «Давлат-хусусий шериклик соҳасини янада такомиллаштириш ҳамда комплекс тизимлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Низом 30-октабр 2024 йил.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 20 октябрдаги "Маданият ва санъат соҳасида давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш учун шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-3980-сон Қарори.
4. 2023 йил 7 апрелдаги ПҚ-114-сон қарорлар.
5. «Public Private Partnerships: The Worldwide Revolution in Infrastructure Provision and Project Finance» (2004)



6. Public-Private Partnerships for Infrastructure: Principles of Policy & Finance (2018, 2-нашр).
7. Hodge, G.A., & Greve, C. (2007). Public-Private Partnerships: An International Performance Review. Public Administration Review, 67(3), 545-558.6.
8. АРМГнинг Жаҳон банки, ОТБ, ЕТТБ ва бошқа молиявий институтлар томонидан тан олинган ДХШ Сертификатлаш Қўлланмасига кўра, хусусий сектор функцияларини аниқ ифодаловчи қисқартмалар (DBOM, DBFOM, O&M) афзал ҳисобланади. Чунки BOOT, BTL каби “эгалик” ва “ўтказиш” атамаларига асосланган қисқартмалар турли мамлакат ва соҳаларда турлича қўлланилади.
9. Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг расмий веб-сайти <https://www.imv.uz/>.
10. <https://gov.uz/uz/madaniyat/news/view/6103>.
11. <https://qashstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/8515-respublikamizda-nechta-bolalar-va-o-smirlar-sport-maktablari-mavjud>.
12. Market update Review of the European public-private partnership market in 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>